

**TA'LIM SOHASIDA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI*****Joniyeva Feruza Jamolovna****Buxoro viloyati Jondor tumani**21- umumta'lim maktabi psixologi***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari, ularning psixologik va pedagogik asoslari hamda ta'lim tizimidagi ahamiyati yoritilgan. Bugungi kunda mehnat bozoridagi o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va yangi kasblarning paydo bo'lishi kasb-hunarga yo'naltirish tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Maqolada kasbiy diagnostika, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar va individual kasbiy maslahatning samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kasb-hunarga yo'naltirish, kasbiy tanlov, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy diagnostika, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim, kasbiy qiziqish, mehnat bozori, o'quvchi, kasbiy rivojlanish.

KIRISH

Kasb-hunarga yo'naltirish tizimi ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va shaxsiy imkoniyatlariga mos kasbni ongli ravishda tanlashiga xizmat qiladi. Zamonaviy jamiyatda kasblarning tez o'zgarishi va yangi mutaxassisliklarning paydo bo'lishi ushbu tizimni muntazam ravishda takomillashtirib borishni talab etadi. Kasb tanlash shaxsning hayotidagi eng muhim qarorlardan biri hisoblanadi. Shu sababli kasb-hunarga yo'naltirish ishlari faqat kasblar haqida ma'lumot berish bilan cheklanmasdan, o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganishga asoslanishi lozim.

Kasb-hunarga yo'naltirishning zamonaviy yondashuvlaridan biri kompetensiyaviy yondashuvdir. Ushbu yondashuv o'quvchilarda kasbiy bilimlar bilan bir qatorda muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, muloqot qilish, jamoada ishlash va mustaqil qaror qabul qilish kabi tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Psixologik diagnostika zamonaviy kasbiy yo'naltirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Turli psixologik testlar, kuzatishlar va suhbatlar yordamida o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari, moyilligi, qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlarini aniqlanadi. Natijalar asosida ularga individual tavsiyalar beriladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi kasb-hunarga yo'naltirish tizimiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron platformalar, virtual kasb tanishtiruvlari,

onlayn diagnostika dasturlari va sun'iy intellektga asoslangan maslahat tizimlari o'quvchilarga kasblar haqida keng va ishonchli ma'lumot olish imkonini beradi.

Ta'lim muassasalari, oliy ta'lim tashkilotlari, professional ta'lim markazlari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ham kasbiy yo'naltirish samaradorligini oshiradi. Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar, mahorat darslari, kasb festivallari va mutaxassislar bilan uchrashuvlar o'quvchilarning kasblar haqidagi tasavvurini boyitadi. Ota-onalarning kasb tanlash jarayonidagi ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. Ular farzandining qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olib, uning mustaqil va ongli qaror qabul qilishiga ko'maklashishlari lozim.

Maktab psixologi, sinf rahbari va fan o'qituvchilari o'rtasidagi hamkorlik kasbiy yo'naltirish tizimining samaradorligini oshiradi. Ularning birgalikdagi faoliyati o'quvchining individual rivojlanish yo'lini belgilash va kasbiy salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Umuman olganda, kasb tanlashda kasbning barcha jihatlarini chuqur o'rganish zarur. Ayrim yoshlar kasbni do'stlari yoki tengdoshlari ta'sirida tanlaydilar. Atrofimizdagi insonlarning fikrini hurmat qilish muhim bo'lsa-da, kasb tanlashda faqat boshqalarning qarashlariga tayanish to'g'ri emas. "Boshqalar qanday qilsa, men ham shunday qilaman" yoki "Hamma shunday o'ylaydi" degan qarashlar ko'pincha noto'g'ri qaror qabul qilishga olib keladi. Kiyim yoki poyabzal tanlashda ham boshqa insonning didi yoki o'lchamiga emas, o'zimizning ehtiyojimizga tayanamiz. Xuddi shuningdek, kasb tanlashda ham shaxsning qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlari asosiy mezon bo'lishi kerak.

Bugungi kunda fan va texnika jadal rivojlanayotganligi sababli mehnat mazmuni ham tubdan o'zgarib bormoqda. Deyarli barcha kasblarga zamonaviy texnologiyalar, elektron uskunalar va raqamli vositalar kirib kelmoqda. Shu sababli kasblar haqidagi eskirgan tasavvurlarni yangilash zarur. Kasb haqida to'g'ri ma'lumot olishda kitoblar, internet manbalari, mutaxassislar, ota-onalar va o'qituvchilarning tavsiyalari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'quvchini yaxshi biladigan o'qituvchi va ota-onaning fikri kasb tanlashda katta yordam beradi. Ba'zan ularning tavsiyalari yoqimli bo'lmasligi mumkin, ammo xolis fikr kelajakda to'g'ri tanlov qilishga xizmat qiladi. Kasb tanlashda inson o'zining jismoniy va psixologik xususiyatlarini ham to'g'ri baholashi lozim. Ayrim kasblar sog'liq holatiga alohida talab qo'yadi. Shu sababli zarur hollarda shifokor bilan maslahatlashish tavsiya etiladi. Kasb tanlash jarayoni murakkab bo'lib, u ketma-ket amalga oshiriladigan bir qator bosqichlardan iborat. Matematik masala yechishda biror bosqichdagi xato yakuniy natijaga ta'sir qilgani kabi, kasb tanlashdagi noto'g'ri qaror ham kelajak faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Maktab o'quvchilarida kasbiy qiziqish va layoqat asta-sekin shakllana boshlaydi. Biroq ayrim o'smirlarda kasb tanlash borasida ikkilanish va noaniqlik kuzatiladi. Bu holat ularning psixologik rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, kasbiy yo'nalishni belgilashga ta'sir etadi. O'smirlik davrining eng muhim vazifalaridan biri

kelajak kasbini ongli ravishda tanlashdir. Shu bois umumiy ta'lim jarayoni kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan boyitilishi zarur. Kasbiy tanlov shaxsning shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish — bu yoshlarning qiziqishlari, layoqatlari, qobiliyatlari hamda jamiyatning kasblarga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda ularga ongli ravishda kasb tanlashga yordam beruvchi maqsadli pedagogik va psixologik faoliyatdir. Ushbu faoliyat nazariya va amaliyotning uzviy birligiga asoslanadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy nazariya amaliy faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi, amaliyot esa yangi ilmiy g'oyalar va xulosalarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Kasbga yo'naltirish nazariyasi turli ilmiy qarashlar, g'oyalar va konsepsiyalar majmuasi bo'lib, yoshlarning individual xususiyatlari bilan jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Uning asosiy maqsadi shaxsning qobiliyati va qiziqishiga mos kasbni tanlashga ko'maklashish hamda malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Kasb tanlashga oid trening namunalari

Taklif etilayotgan trening va o'yinlar quyidagi tartib asosida tashkil etiladi:

O'yinning maqsadi va undan foydalanish imkoniyatlari.

O'yinni o'tkazish shartlari (qatnashchilar soni, davomiyligi, zarur jihozlar).

O'yin bosqichlari va tayyorgarlik jarayoni.

O'yin yakunida o'quvchilar bilan muhokama o'tkazish tartibi.

O'yinning diagnostik imkoniyatlari.

O'yin davomida uchrashi mumkin bo'lgan tipik qiyinchiliklar.

O'yinni takomillashtirish va undan kelgusida foydalanish istiqbollari.

O'yinlarni tashkil etish va o'tkazishning umumiy qoidalari oldingi bo'limlarda bayon etilganligi sababli, ushbu bo'limda asosan har bir o'yinning o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratiladi. Maktab o'quvchilarining kasbiy qiziqishlarini o'rganish maqsadida turli psixologik metodikalar qo'llaniladi. O'spirin yoshidagi o'quvchilarning fe'l-atvori, xulqi va xatti-harakatiga xolis baho berish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, ijobiy kayfiyat va qoniqish hissini shakllantiradi. Buning uchun samimiy maqto'v, minnatdorlik bildirish va rag'batlantirishning o'zi ham yetarli bo'lishi mumkin. Ijobiy baholash o'quvchilarda yanada yaxshi natijalarga erishish istagini kuchaytiradi.

Aksincha, noo'rin tanbeh, haqorat yoki qo'pol munosabat o'spirinlarda ranjish, norozilik va ishonchsizlikni yuzaga keltiradi. Shu sababli tarbiyaviy ta'sir choralaridan oqilona va o'rinli foydalanish zarur. O'zbek xalq pedagogikasida farzand tarbiyasida mehribonlik, odoblilik va ezgu muomala ustuvor o'rin egallaydi. Xalqimizning "Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqadi" degan hikmati bejiz aytilmagan. Farzandning xatti-harakati baholanayotganda uning aybi darajasi hisobga olinishi, jazo esa adolatli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Jazolash nafaqat bolaning, balki butun

oilaning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Ba'zan o'quvchi qilgan xatosidan o'zi ham uyaladi va bundan tegishli xulosa chiqaradi. Shunday vaziyatda qo'pol tanbeh yoki haqorat tarbiyaviy samara bermaydi. Har qanday salbiy baho o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Har bir kasb ma'lum darajada bilim, qobiliyat va iste'dodni talab qiladi. Shu bilan birga, kasbning istiqboli, mehnat bozori talabi va shaxsning imkoniyatlari ham e'tiborga olinishi zarur. Kasb tanlashda adashmaslik uchun har bir yosh o'z qobiliyati, qiziqishi, shaxsiy fazilatlari va kelajakdagi maqsadlarini chuqur tahlil qilgan holda ongli ravishda qaror qabul qilishi lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir. Kompetensiyaviy yondashuv, psixologik diagnostika, raqamli texnologiyalar va ta'lim muassasalari hamda mehnat bozori o'rtasidagi hamkorlik o'quvchilarning kasbiy o'zini anglashini rivojlantiradi va ularni ongli kasb tanlashga tayyorlaydi. Bunday yondashuv yoshlarning kelajakda raqobatbardosh va malakali mutaxassis bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G'. Kasb psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Karimova V.M. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Nishonova Z.T. Kasbiy yo'naltirish psixologiyasi. – Toshkent, 2020.
4. Davletshin M.G. Mehnat va kasb psixologiyasi. – Toshkent, 2017.
5. John Holland. Making Vocational Choices. – Odessa, 1997.
6. Donald Super. The Psychology of Careers. – New York, 1957.
7. UNESCO. Strategy for Technical and Vocational Education and Training (2022–2029). – Paris, 2022.
8. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.